

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA TARIXIY TAHLILI

Karimov Akbar

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

e-mail: karimov230582@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-6235-9985>

UO‘K: 94(575.1)“1911/2021”:3

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanishi Surxondaryo viloyati misolida tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatdagi umumiy o‘rta ta‘lim, maktabgacha ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimidagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlari arxiv ma‘lumotlari hamda statistik ko‘rsatkichlar asosida yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, ekologik madaniyatini shakllantirish hamda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, yoshlar siyosati, ta‘lim tizimi, maktabgacha ta‘lim, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar.

Аннотация: В статье с исторической точки зрения анализируются формирование и развитие государственной молодежной политики в Узбекистане в годы независимости на примере Сурхандарьинской области. На основе архивных данных и статистических показателей освещаются количественные и качественные изменения в системе общего среднего, дошкольного и среднего специального образования области. Также раскрываются меры, принятые в сфере воспитания молодежи в духе патриотизма, повышения ее интеллектуального потенциала, формирования экологической культуры и поддержки одаренной молодежи, а также их общественно-политическая значимость.

Ключевые слова: Сурхандарья, молодежная политика, система

образования, дошкольное образование, академический лицей, профессиональный колледж, духовно-просветительские реформы.

Abstract: The article analyzes the formation and development of the state youth policy in Uzbekistan during the years of independence from a historical perspective, using the example of the Surkhondaryo region. Based on archival data and statistical indicators, quantitative and qualitative changes in the system of general secondary, preschool, and secondary specialized education in the region are highlighted. Furthermore, the measures taken to educate youth in the spirit of patriotism, increase their intellectual potential, form an ecological culture, and support talented youth, as well as their socio-political significance, are revealed.

Keywords: Surkhondaryo, youth policy, education system, preschool education, academic lyceum, vocational college, spiritual and enlightenment reforms.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jamiyatdagi barcha toifadagi insonlarni, ayniqsa, O‘zbekiston aholisining qariyb 65 foizini tashkil etuvchi yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ta‘lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridandir. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishni taqozo etadi.

Yoshlarga zamonaviy jahon standartlari asosida ilg‘or bilim berish, ularni zamon talablariga mos mutaxassislar qilib tarbiyalash bo‘yicha samarali faoliyat yuritildi. Xususan, madaniy hayotning asosi bo‘lgan xalq ta‘limi sohasiga alohida ahamiyat berildi. Ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish uchun kerakli

bo'lgan moddiy-texnik baza yaratish maqsadida katta miqdorda mablag' ajratildi, Maktablar so'ngi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlandi, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha zaruriy islohotlar hayotga tatbiq etildi. Bu kabi ko'rilgan chora-tadbirlar yosh avlodning hozirgi zamon talablariga mos bilim va ko'nikmalarni qo'lga kiritishiga yordam beradi.

Mustaqillikdan so'ng, ta'lim va tarbiya sohasi diqqat markazida bo'ldi, ta'lim tizimini isloh qilish va uning kelajakdagi asosiy tamoyillari belgilab olindi. Ta'lim tizimida uzviylik, tizimlilik, ilmiylik va dunyoviylik tamoyillari ta'minlandi. Ta'lim jarayonida insoniylik hamda milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlar muhim o'rinni egalladi. Millati, tili, yoki diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratildi.

Natijada, shaharlardagi ta'lim muassasalarining imkoniyatlari ko'zga ko'rinarli darajada kengaytirildi, ularning moddiy-texnik ta'minoti yanada mustahkamlandi. Kelajak avlodga zamonaviy ta'lim va tarbiya berish maqsadida maktabgacha ta'lim sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Iqtidorli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil etildi, bog'chalar va bolalar poliklinikalari soni ko'paytirildi. O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda esa tubdan yangi yondashuvlar joriy qilindi. Sport maydonlari va xalq ta'limiga oid boshqa obyektlarni barpo etish, shuningdek, ta'lim jarayonlarini zamonaviy usullar bilan takomillashtirish dolzarb muammoga aylandi. Chunki sovet davrida maktablarda sinfxonalar, o'quv darsliklari va zarur ta'lim jihozlari yetishmasligi sababli, ko'plab ta'lim muassasalari ikki-uch smenada faoliyat yuritgan. Masalan, 1991-yilda Qumqo'rg'on shahrida 1102, Sherobod shahrida 750, Sho'rchi shahrida esa 390 nafar o'quvchi ikkinchi smenada o'qigan[1]. 1991-1992 o'quv yili davomida Termiz, Denov, Sherobod, Jarqo'rg'on va Sho'rchi shaharlarida 12 ta umumiy ta'lim maktabi hamda 6 ta maktabgacha ta'lim muassasalari kapital

ta'mirlashni talab qilardi[2].

Respublikamiz xalq ta'limida bo'lgani kabi, viloyatimiz ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda sifat va miqdor jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Misol uchun, 1991-yilda viloyatda 714 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida jami 335,658 nafar o'quvchi tahsil olgan bo'lsa, 1997-yilda maktablar soni 772 taga yetib, u yerda 411,686 nafar o'quvchi ta'lim oldi. 2000-2010 o'quv yillari davomida esa umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 878 taga, o'quvchilar soni esa 466,772 nafarga yetdi. Shu o'n yil mobaynida maktablar soni 66 taga, o'quvchilar soni esa 131,144 taga oshdi[3:13]. 1993-yildan 1996-yilgacha shahar miqyosida jami 11,300 o'rinli 13 ta maktab qayta ta'mirlandi, shuningdek, maktablar qoshida 450 o'rinli qo'shimcha sinfxonalar qurildi[4:20].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hayotga izchil tatbiq etilayotir. Viloyat xalq ta'limi xodimlari so'nggi yillarda qator muhim yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa, yoshlarga bilim berish uchun yangi, zamonaviy va xalqaro standartlarga mos ta'lim muassasalari tashkil etildi. Viloyatimiz iste'dodlari jahon tillaridan biri — ingliz tili, informatika asoslari hamda iqtisodiy bilimlarni o'qitishda ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

1995-yilda shaharlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash, yangi o'quv-uslubiy vositalar bilan ta'minlash hamda pedagog-mutaxassislarning kasbiy darajasini yuksaltirish uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ularni o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash borasida ham ishlar olib borildi. Natijada, shaharlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari diqqat markazida bo'ldi.

O'sha yili Boysunda 8 ta muassasada 1032 nafar, Jarqo'rg'onda 10 ta muassasada 1154 nafar, Qumqo'rg'onda 8 ta muassasada 776 nafar, Sherobodda 12 ta muassasada 2718 nafar, Sho'rchida 13 ta muassasada 3302 nafar, Termizda 13 ta muassasada 6818 nafar, Denovda esa 11 ta muassasada 2710 nafar bola tarbiyalandi[5:18].

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablarni kompyuter texnologiyalar bilan

qamrab olish maqsadida katta ishlar amalga oshirildi. 2000-2001 o'quv yili boshiga qadar har bir shahar hokimligi va homiyar hisobidan har bir maktabga kamida bitta kompyuter ajratildi. Maktablarda o'quvchilar bilimni baholashda an'anaviy usullar bilan birga test sinovlari kengroq tatbiq etila boshlandi. Bundan tashqari, mahalliy va Respublika miqyosida maktab olimpiadalari barqaror o'tkazib borildi.

Misol uchun, Termiz shahrida 1996-yilda faoliyat yuritgan 14 ta umumta'lim maktabida 11,200 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2000-2001 o'quv yili boshida maktablar soni 16 taga, o'quvchilar soni esa 14,300 nafarga yetdi[6].

2000-2001-yillarda Termiz, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Boysun shahar ta'lim muassasalaridagi ta'mirga muhtoj kompyuterlarni sozlash bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Shuningdek, shahar o'quvchilarining to'laqonli bilim olishlari uchun 557 ta fan o'quv xonalari, 35 ta lingafon xonasi qayta jihozlandi. 2008-2010-yillarda Sherobod, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Boysun shahar ta'lim muassasalariga 2 million 250 ming so'mlik sport anjomlari, 210 ta parta, 580 ta yumshoq jihozlar olib berildi[7:15].

2000-yilda Termiz, Denov, Boysun, Sherobod, Sho'rchi, Sharg'un, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, va Kakaydi shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida jami 2,548 nafar pedagog, direktor, tarbiyachi, musiqa direktori va psixologlar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 2,985 nafarga yetdi. 2010-yilda Termiz davlat universitetini 50 nafar, Denov va Termiz kasb-hunar kollejlari esa 235 nafar bitiruvchi tamomlab, shaharlardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ish boshladi[8:12]. Termiz, Denov va Sherobod shaharlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'quv qo'llanmalari, o'yinchoqlar va texnik vositalar bilan ta'minlash borasida tayinli ishlar bajarildi. Bundan tashqari, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Boysun va Sharg'un shaharlaridagi 7 ta maktabgacha ta'lim tashkilotiga kompyuterlar berildi.

Mustaqillik yillarida shaharlarda ekologik muhitni yaxshilash masalalari xalq ta'limi

sohasida ham ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. O'qituvchilar va o'quvchilar ongiga ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish muhim maqsad sifatida qaralib, samarali faoliyat yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, Denov, Sho'rchi, Sariosiyo, Sharg'un va Qumqo'rg'on shaharlaridagi maktablarda 1993–2010-yillar davomida namunali tashabbuslar joriy qilindi.

Mazkur maktablarda ekologik tarbiya, tabiat boyliklarini muhofaza qilish, Yevropa hamda Yaponiyada tabiatni asrash madaniyati, alyuminiy zavodidan chiqarilayotgan zaharli fitor gazining zararli ta'sirlari, ichimlik suvi muammolari, Orol dengizi falokati, o'simlik hamda hayvonot dunyosini himoya qilish bo'yicha suhbatlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazildi.

2000–2005-yillar oralig'ida esa Denovda 455 ta, Sho'rchida 358 ta, Sharg'unda 365 ta, Sariosiyoda 465 ta turli mavzularga bag'ishlangan ekologik tadbirlar o'tkazildi[9:2].

2005–2010-yillar davomida Termiz, Jarqo'rg'on va Sherobod shaharlaridagi 30 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida "Bolalarni rivojlantirish va maktabgacha ta'lim bazasi dasturi" tajriba loyihasi sifatida yo'lga qo'yildi. Ushbu dastur orqali bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga yordam berish, maktabgacha ta'lim sohasini innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish maqsadida ishlab chiqildi. 2010-yil fevral oyida Qarshi shahrida tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, Respublika hududiy seminarlari o'tkazildi. Unda Surxondaryo viloyati maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari dastur yuzasidan o'z taklif va mulohazalari bilan ishtirok etdi.

Surxondaryo viloyati shaharlarida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etish, ularni yangi uslubdagi materiallar va jihozlar bilan ta'minlash, yuqori salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash yuzasidan muvaffaqiyatli faoliyat amalga oshirildi. 2005-yilga kelib viloyatdagi akademik litseylar soni 2 tani tashkil etib, 550 nafar o'quvchi o'qidi. Shuningdek, viloyatdagi 65 kasb-hunar kollejiga 25 ming 603 nafar o'quvchi qabul qilindi[10:114].

Xalq xo'jaligi uchun kadrlar zaruratini

ta'minlash, yuksak salohiyatli mutaxassislar tayyorlash hamda ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar darajasida jihozlash masalasiga alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'quv yurtlari zamonaviy o'quv-uslubiy va ilmiy talablarga mos darsliklar, qo'llanmalar hamda moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlandi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ldi. Eng muhimi, bitiruvchi mutaxassislarni yetuk, bilimdon mutaxassis sifatida tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlar bitiruvchilari soni 2010-yilda Termiz davlat universitetida 1567 nafar, viloyat kasb-hunar kollejlari 27 ming nafarni tashkil etdi. Ular xalq xo'jaligi va ta'lim-tarbiya muassasalariga yo'llanma oldilar[11:298]. Shu davr mobaynida Termiz, Jarqo'rg'on, Denov shaharlarida 5 ta akademik litsey, 16 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatdi. Ular xalq xo'jaligini, turli tashkilot va muassasalarni har xil ixtisosdagi malakali mutaxassislar bilan ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etdi. Mavjud akademik litsey va kasb-hunar kollejlari anchagina ijobiy o'zgarishlarga ham erishildi, yangi mutaxassislik, ya'ni huquqshunos, dorishunos, fermerlik, maishiy xizmat, kompyuter savodxonligi, kichik ish boshqaruvchi kabi bo'limlar tashkil etildi[12:12].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-dekabrda 65-son hamda viloyat hokimligining 2015-yil 10-dekabrda 295-son bayoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2016-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi"ning 40-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 19-aprelda 65-son hamda viloyat hokimligining 2016-yil 5-mayda "Yurt kelajagi" iqtidorli yoshlar Respublika tanlovi hamda "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining tuman (shahar) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar saralash bosqichlarini o'tkazish to'g'risida"gi 120-son majlis bayoniga asosan, 2016-yilning 13-maydan 23 mayga qadar tanlovning tuman (shahar) bosqichlari o'tkazildi. Tanlovda ishtirok etish

istagini bildirib ariza-anketa bilan murojaat qilgan 3450 nafar yoshlar tanlovning tuman (shahar) bosqichlarida ishtirok etdilar. Shundan, 387 nafar yoshlar tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanma oldilar.

Shuningdek, tanlovning viloyat bosqichi 2016-yilning 28-may kuni Termiz davlat universitetida bo'lib o'tdi. Unda tanlovning tuman (shahar) bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritib viloyat bosqichiga yo'llanma olgan jami 387 nafar yoshlardan 380 nafari ishtirok etdi.

2019-yil hududda yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda jami 435 ta tadbir va loyihalar tashkil etilib, ularda 75 ming nafarga yaqin yoshlar qamrab olindi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati Kengashi (mahalliy Kengashlar bilan) tomonidan 2019-yilda "14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan "Temur izdoshlari", "Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharaflidir" mavzularida 24 marotaba ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda "O'zbekim o'g'lonlari", "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" mavzularida 8 marotaba tanlovlar tashkil etilib, 6 ming nafardan ortiq yoshlar ishtiroki ta'minlandi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tug'ilganining 81 yilligi munosabati bilan "Islom Karimov — Mustaqil O'zbekiston Respublikasi asoschisi", "Mening birinchi Prezidentim" mavzularida 20 marotabadan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, mazkur tadbirlarda 7 ming nafardan ortiq yoshlar ishtiroki ta'minlandi. 8 marotaba OAV larida keng yoritildi.

30-iyun — "Yoshlar kuni" munosabati bilan joriy yilning iyun oyi davomida 150 ta loyiha, yoshlar sayillari, gala-konsertlarga 135 mingdan ortiq yoshlar jalb qilindi.

Mazkur Respublika tanlovining viloyat bosqichi 2019-yilning 17-19-avgust kunlari davomida Termiz shahridagi "Yoshlar markazi"da "Yosh kitobxon" respublika tanlovining Surxondaryo viloyat bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi.

2019-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-noyabrda "O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolarini oliy ta'lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to'g'risida"gi 914-son qaroriga muvofiq,

yoshlar ittifoqi tizimidagi tabiiy yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, yoshlar ittifoqi sardorlari, boshlang'ich tashkilot yetakchilari va yoshlar ittifoqi tizimida ishlayotgan mutaxassislarni oliygohlarga imtiyoz asosida davlat byudjeti hisobidan o'qishga kiritish bo'yicha nomzodlarni munosib ko'rib chiquvchi Surxondaryo viloyati Komissiyasi a'zolarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Surxondaryo viloyatidagi barcha tuman (shahar)laridan saralab olingan 30 nafar talabgor nomzodlarning hujjatlari viloyat Komissiyasi tomonidan ko'rib chiqildi. Markaziy Kengashga taqdim etilgan nomzodlardan Xursandova Sayyora imtiyozli ravishda grant asosida o'qishga kirishga tavsiya etildi.

2021-yil 10-sentyabr kuni Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyati axborot kutubxona markazida o'zbek adabiyoti namoyondasi Is'hoqxon To'ra Ibrat tavalludiga bag'ishlab "Milliy o'zbek adabiyoti yoshlar nigohida" mavzusida xotira kechasi o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Termiz harbiy prokuraturasi, viloyat Mudofaa

ishlari boshqarmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyati axborot kutubxona markazi xodimlari, Termiz shahar 16-son umumta'lim maktabi yosh ijodkor bir guruh o'quvchi-yoshlar hamda viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi harbiy-texnik mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash Markazi chaqiriluvchilari ishtirok etdilar. Tadbirda 70 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etishdi. Tadbir so'ngida yosh ijodkorlarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi hamda faxriylar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxondaryo viloyati misolida o'tkazilgan tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosati tizimli va bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Viloyatda ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi, maktabgacha ta'lim va o'rta maxsus tizimning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilangani hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yosh kitobxon", "Yurt kelajagi" kabi ijtimoiy loyihalarning joriy etilishi yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1-fond, 18-ro'yxat, 1-ish, 41-varaq.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 313-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 33-varaq.
3. Surxondaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining joriy arxivi. 2020-yil 28-dekabr, 23-bayonnoma, 2020-yilgi hisoboti. – B. 13.
4. Kenjaboyev S. "Maktab va kelajak". – Termiz, 2000. – B. 20.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. №1 kitob, 1991-2002 y. – Termiz, 2004. – B.18.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond. 2-ro'yxat. 28-ish, 11-varaq.
7. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi. 2011-yil 4-yanvar, 1-bayonnoma. – B. 15.
8. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. №1 kitob, 2000-2010 y. – Termiz, 2011. – B. 12.
9. "Surxon tongi" gazetasi. "Ekologik tarbiya – inson salomatligi". 2006-yil 23-fevral. № 7. — B. 2.
10. Surxondaryo viloyati iqtisodiyot boshqarmasi joriy arxivi. 4-kitob. 2006. – B. 114.
11. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. 2011. – Termiz. – B. 298.
12. Surxondaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining joriy arxivi. 2007-yil 27-dekabr, 23-bayonnoma, 2007-yilgi hisoboti. – B. 12.